

QADRING BALAND BO‘LSIN, ONA TILIM!

Abdulla Qodiriy nomidagi JDPI

O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti

Qosimjonova Aziza

*O‘zbek tili xalqimiz uchun milliy o‘zligimiz va mustaqil davlatchilik
timsoli, bebaho boylik, buyuk qadriyatdir.*

Shavkat Mirziyoyev

Til har bir millatning ulkan boyligi, dunyoda mavjudligining timsoli, bebaho mulki, o‘zligi, qalbi va ovozi hisoblanadi. Har bir xalqning o‘z vatani, oilasi bo‘lgani kabi urf-odatlar, tarixi, qayg‘u-hasratlari, orzu-armonlari bir so‘z bilan aytganda o‘zligi aks etgan betakror, jonajon tili ham albatta bo‘ladi. Suvsiz daryo bo‘lmaganidek, tilsiz millat ham mavjud bo‘lmaydi. Biror xalqqa mansub til, o‘sha xalq bilan yashaydi, bardavom bo‘ladi. Ulug‘ ma‘rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy aytganidek: “Har bir millatning dunyoda borligini ko‘rsatadurg‘on oynai hayoti- milliy til va adabiyotidir. Milliy tilni yo‘qotmak millatning ruhini yo‘qotmakdur”. Har bir inson o‘z tiliga bo‘lgan mehr-muhabbatini, hurmati va sadoqatini uni asrab avaylashi, e‘tibori hamda g‘amxo‘rliqi orqali namoyan etadi.

Ammo afsuski, oramizda ona tilimizni nufuziga o‘z hissasini qo‘shish o‘rniga uni buzib talqin etayotganlar, o‘z tilini yaxshi bilmay turib, boshqa tillarni o‘rganishga harakat qilayotganlar, o‘z alifbosi bo‘la turib, hali ham krill yozuvidan foydalanayotganlar borligi juda yomon holat. Tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘llash u yoqda tursin, hatto ba‘zi so‘zlarni yozishdagi xatoliklar, eng achinarlisi bu xatoga ta‘lim muassassasi bo‘lmish ba‘zi maktablar ham yo‘l qo‘ygani, xususan, o‘zim guvohi bo‘lgan “xush kelibsiz” o‘rniga “hush kelibsiz” tarzida xato yozib, katta qilib ilib qo‘ygani insonni qayg‘uga soladi va qalbini tirnaydi. Bundan tashqari kafelar, kiyim-kechak, oziq-ovqat mahsulotlarimizgacha yevropacha, boshqa tillardagi nomlarni qo‘yilishi urfga aylanmoqda. Bugungi kunda tilimizni sofliqi va boyligiga putur yetkazib, yaxshi, a‘lo so‘zlarning o‘rnida birgina “ok” so‘zini juda ko‘p odam

ishlatayotgani ham biz uchun katta musibat. Bundaylar bor ekan, O‘zbekistonda o‘zbek tilini rivojlantirish, to‘laqonli tatbiq etish qiyin.

Ona tilimizni nafaqat yurtimizda balki, butun dunyoda yashnatish, yuksaltirish o‘rniga uni xato talqin qiluvchi, nufuziga putur yetkazuvchi bunday insonlarga aytgim keladi: “Sizlarni boshqa tillardagi nomlardan, so‘zlardan foydalanmasligingiz uchun jinoiy javobgarlikka tortuvchi qonunlar chiqarilishi shartmi? O‘z ona tilingizga bo‘lgan hurmat, muhabbatingizni shunday ifodalayapsizmi, o‘zingizga savol berib ko‘ringchi, ona tilingizni qay darajada asrab-avaylab, himoya qilyapsiz, qadrlayapsiz?”. Shu o‘rinda Muhammad Yusufning ushbu she’ri har bir inson iqroriga aylanishi kerak deb o‘ylayman;

Garchi zug‘um qilganlarni yoqtirmadim

She’r yozdimu bo‘lak ishni qotirmadim

Tilim turib o‘z tilimda gapirmadim

Bir eslasam eziladi bag‘ri-dilim

Ona tilim, kechir meni, ona tilim.

Til bor – millat bor. Til yo‘q – millat yo‘q¹. O‘z tilini asrab-avaylagan xalq o‘zligini, g‘ururini asrab-avaylagan bo‘ladi. Islom Abdug‘aniyevich Karimov ta‘kidlaganidek:” Ona tili bu – millatning ruhidir. O‘z tilini yo‘qotgan har qanday millat o‘zligidan judo bo‘lishi muqarrardir”. Ona tilimiz – milliy ma’naviyatimizning bitmas-tuganmas bulog‘idir. Men o‘zbekman, degan har bir inson o‘zbek tili uchun qayg‘urmog‘i kerak²!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulla Avloniy “Turkiy Guliston yoxud axloq”.
2. Muhammad Yusuf “Quyoshga qarab oqqan suv”.

¹ Erkin Vohidov “So‘z latofati”.

² I.A.Karimov “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch”.

